# XUSUSIY TIBBIYOT MARKAZI MIJOZLARI VA XODIMLARI UCHUN AXBOROT TIZIMINI YARATISH

***S. N. Djumayev***
*Toshkent axborot texnologiyalari universiteti*
*Samarqand filiali katta o'qituvchisi*
*sindordjumayev@gmail.com*
***N. U. Narzullayeva***
*Toshkent axborot texnologiyalari universiteti*
*Samarqand filiali dotsenti*
nigacool89@gmail.com
***A. A. Abdinobiyev***
*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*
*Samarqand filiali assistenti*
*a.a.abdinobiyev@gmail.com*
***Sh. B. Keldibekov***
*Toshkent axborot texnologiyalari universiteti*
*Samarqand filiali talabasi*
*shohjahonk091@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada xususiy tibbiyot muassasalari uchun yaratilgan axborot tiizmidan foydalanish yo'riqnomasi va tizim funksiyalari bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** Axboot tizimi, login, parol, dasturlash tili, ma'lumotlar bazasi, kasalliklar tarixi, vrachlar ro'yxati, sahifalar turlari.

Dastur barcha turdagi operatsion tizimlari uchun MySQL va PHP tilida yaratilgan bo'lib, uning vazifasi xususiy tibbiyot muassasalarida mijozlarga xizmat ko'rsatishni avtomatlashtirishdan iborat. Hozirgi kunda ish faoliyatida ro'yxatdan o'tkazish va xizmat ko'rsatish masalalarini avtomatlashtirish dolzarb bo'lib qolmoqda. Ana shu va boshqa ayrim muammolarni hisobga olib bu jarayonlarni avtomatlashtiruvchi dasturiy tizim yaratish masalasi yuzasidan ishning dolzarbligini anglab olish mumkin.

**Dasturdan foydalanuvchilar uchun ko'rsatmalar.** Bu dastur barcha turdagi operatsion tizimlari uchun MySQL va PHP muhitida yaratilgan bo'lib, tizimni ishga tushirish uchun web brauzer oynasidagii manzil satriga quyidagi nomni yozishimiz kerak bo'ladi. Natijada 1-rasmdagi kabi tizim bosh oy asi ishga tushadi.




*1-rasm. Imedservis dasturining bosh oynasi.*

Ko‘rib turganimizdek bu yerda tibbiyot muassasasining 4 ta turdagi mutaxassislari ko‘rigi kiritilgan. Bundan biz o‘zimizga kerakli mutaxassislikni tanlaymiz, ya’ni “LOR” bo‘limiga kiramiz. Shunda bizga 2-rasmdagi bo‘lim oynasiga kirish oynasi ishga tushadi.




*2-rasm. Pechat dasturining interfeysi.*

Bu oynadan tizimga kirish uchun Login va Parolni teramiz. Login va Parol muassasaning tegishli javobgar xodimigagina ma’lum bo‘ladi(3-rasm).




*3-rasm. Pechat dasturining interfeysi.*

Login va Parol to‘g‘ri kiritlgandan so‘ng, tibbiyot muassasasining “LOR” bo‘limiga tegishli ma’lumotlar oynasi ishga tushadi.

Bu oynada “LOR” bo‘limiga oid mijozlar bilan ishlaydigan quyidagi bandlar mavjud(4-rasm):

- Umumiy mijozlar haqida;
- Ma’lumotlarni izlash va tartiblash;
- Ro‘yxatdan o‘tkazish;
- Ma’lumotlarni o‘chirish;
- Chop etish.

Bulardan biz mijozlar haqida umumiy ma’lumotlarni quyidagi oynadan olishimiz mumkin(4-rasm):




| Bo`lim | Ismi | Familiyasi | Sharfi | Tug`ilgan yili | Viloyat | Tuman | Manzili | Boshqa davlat | Doktor | Doktor | Summasi | Sanasi |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| LOR | Холида | Нeгматжонова | | 1965 | Samarqand | Samarqand shahri | Юкори Кайнома махалласи | | Xushvaqova | | 30000 | 2018-08-30 |
| LOR | Зиёдулло | Асриддинов | | 2007 | Samarqand | Kattaqo`rg`on tumani | Ипак йули 20 | | Xushvaqova | | 30000 | 2018-08-30 |
| LOR | Гулнора | Индиаминова | | 1972 | Samarqand | Samarqand shahri | А. Икромов 109/15 | | Xolbayev | | 80000 | 2018-08-30 |
| LOR | Зиёдулло | Асриддинов | | 2007 | Samarqand | Kattaqo`rg`on tumani | | | Xolbayev | | 40000 | 2018-08-30 |

*4-rasm. Pechat dasturining interfeysi.*

Agar “Ma’lumotlarni izlash va tartiblash” bandiga kiradigan bo‘lsak, u yerdan mijozlarni kerakli xususiyatlari bo‘yicha izlab topishimiz va tartiblashimiz mumkin. Masalan, 2018 yil 10-avgustdan 30-avgustgacha kelgan mijozlar haqida ma’lumot olmoqchi bo‘lsak, quyidagi oynadagi kabi so‘rov berib natijalarni olishimiz mumin(5-rasm).




*5-rasm. Ma’lumotlarni izlash va tartiblash oynasi.*

Yoki bo‘lmasa izlashni boshqa parametrlar orqali ham amalga oshirish mumkin, masalan, ism familiyani kiritish orqali mijozlarni izlash mumkin(6-rasm).




*6-rasm. Ma’lumotlarni izlash va tartiblash oynasi.*

Mijozlar haqidagi ma’luotlarni qog‘ozga chop etish uchun oynaning “chop etish” bandidan foydalanamiz(7-rasm).




*7-rasm. Chop etish oynasi.*

Bu oynadan har bir mijoz haqidagi ma’lumotni alohida shaklida chop etib olishimiz mumkin bo‘ladi(8-rasm).




*8-rasm. Mijoz haqida ma’lumotni chop etish oynasi.*

Mijozlar haqidagi ma’lumotlarni tahrirlash yoki bazadan o‘chirish uchun “Ma’lumotlarni o‘chirish” bandidan foydalanamiz(9-rasm). Bu oynadan har bir foydalanuvchini alohida o‘chirishimiz mumkin bo‘ladi.




| Ismi | Famliliyasi | Sharfi | Manzili | Doktor | Summasi | Sanasi | Tahrirlash |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Зиёдулло | Асриддинов | | | Xolbayev | | 2018-08-30 | |
| Гулнора | Индиаминова | | А. Икромов 109/15 | Xolbayev | 40000 | 2018-08-30 | |
| Зиёдулло | Асриддинов | | Ипак юли 20 | Xushvaqova | | 2018-08-30 | |
| Холида | Негматжонова | | Юкори Кайнома махалласи | Xushvaqova | 30000 | 2018-08-30 | |
| Раъно | Божигитова | | Мустакиллик махалласи | Xolbayev | 25000 | 2018-08-29 | |
| Раъно | Божигитова | | Мустакиллик махалласи | Xushvaqova | 50000 | 2018-08-29 | |

*9-rasm. Ma’lumotlarni o‘chirish va tahrirlash oynasi.*

Yangi kelgan mijozlarin bazaga kiritish uchun “Ro‘yxatdan o‘tkazish” bandidan foydalaniladi(10,11,12,13-rasmlar). Mijozni ro‘yxatdan o‘tkazish uchun bu oynadagi barcha tegishli bo‘limlarni to‘ldirib chiqamiz.




*10-rasm. Ro‘yxatdan o‘tkazish oynasi.*




*11-rasm. Ro‘yxatdan o‘tkazish oynasi.*




*12-rasm. Ro‘yxatdan o‘tkazish oynasi.*

13-rasmda yuqoridagi ro‘yxatga kiritgan mijozimizni ism familiyasini ko‘rishimiz mumkin.




*13-rasm. Ma’lumotlarni o‘chirish va tahrirlash oynasi.*

Ana shu shaklda dasturning boshqa bo‘limlarini faoliyatini ham olib borish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Проектирование и разработка web приложений. А.Ф.Тузовский, Москва Юрайт 2016.
2. Кузнецов М.В. MySQL 5 (+CD). СПб.: БХВ- Санкт-Петербург, 2006.
3. Islomov S. Z. et al. New authentication scheme for cloud computing //Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems. – 2018. – Т. 10. – №. 10. – С. 2316-2319.
4. Djumayev S. N., Shodmonov D. A., Ortiqova N. E. Ta’limda mobil ilovalardan foydalanish imkoniyatlari: Possibilities of Using Mobile Applications in Education //INTERNATIONAL JOURNAL OF THEORETICAL AND APPLIED ISSUES OF DIGITAL TECHNOLOGIES. – 2023. – Т. 4. – №. 2. – С. 90-95.
5. Sulyukova L. F., Yakubjanova D. K., Djumaev S. N. Modeling and assessment of the energy state of the technological system of mechanical processing when creating digital twins //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – Т. 402. – С. 03010.
6. Mamaraufov O. A., Fayzimuratov N. B., Djumaev S. N. PURPOSE AND SIGNIFICANCE OF INTELLECTUAL PROCESSING OF VIDEOS //SCIENTIFIC REVOLUTIONS: ESSENCE AND ROLE IN THE DEVELOPMENT OF SCIENCE AND TECHNOLOGY. – 2021. – С. 13-17.